

SMTIda Turkiyaning yetakchi tahliliy tuzilmasi "ANKASAM" direktori bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



Joriy yil 28-oktyabrda SMTIda Turkiyadagi yetakchi tahlilmalardan biri - "ANKASAM" (Anqara inqiroz va siyosiy tadqiqotlar markazi) direktori Mehmet Seyfiddin Erol bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekiston-Turkiya munosabatlarining hozirgi holati va yanada rivojlantirish yo'llari muhokama qilindi. O'zbekiston va Turkiya o'rtaqidagi ekspert muloqotini har tomonlama mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Mehmet Seyfiddin Erol O'zbekiston-Turkiya sheriklik aloqalari ijobiy sur'at bilan rivojlanib borayotganini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, Anqara O'zbekistonga Markaziy Osiyo mintaqasidagi asosiy hamkor sifatida qaraydi. Bu ikki davlatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlari hamda madaniy-tarixiy o'xshashligi va yaqinligi bilan bog'liq.



Shu bilan birga, mehmonning ta'kidlashicha, ekspertlar hamjamiyati ikki tomonlama munosabatlarda yangi o'sish nuqtalarini aniqlash uchun ko'proq mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak.

Shu munosabat bilan "ANKASAM" direktori O'zbekistondagi barcha davlat va xususiy tahlil tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish rejali bilan o'rtoqlashdi. Xususan, yaqin kelajakda SMTI bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzolashdan manfaatdorlik bildirildi. Uning so'zlariga ko'ra, bu ikki aql markazlari o'rtasidagi munosabatlarni institutsionalizatsiya qilish yo'lidagi birinchi muhim qadam bo'ladi.

Anqara inqiroz va siyosiy tadqiqotlar markazi ("ANKASAM") - 2017-yilda Anqarada tashkil etilgan tahliliy markaz. Uning ta'sischilarini orasida Turkiyaning yetakchi olimlari, ekspertlari, OAV va ziyorolar vakillari bor. Xalqaro tizimdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy inqirozlarni tahlil qilish va ularning yechimlarini o'z ichiga olgan siyosatni ishlab chiqish Markazning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.